

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
oktyabr



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN
POLITEXNIKA UNIVERSITETI**

*Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya
materiallari to'plami*

**“GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV:
2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA
TEXNOLOGIK VA INDUSTRIAL SANOATNI RIVOJLANTIRISH
ORQALI MIKRO VA MAKROIQTISODIY BARQAROR
O'SISHNI TA'MINLASH DOLZARBLIGI”**

**“GLOBAL DIGITAL INTEGRATION: THE RELEVANCE OF
ENSURING MICRO AND MACROECONOMIC SUSTAINABLE
GROWTH THROUGH TECHNOLOGICAL AND INDUSTRIAL
DEVELOPMENT IN THE TRANSITION TO A GREEN
ECONOMY BY 2030”**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ:
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО
МИКРО- И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ
РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИНДУСТРИАЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКЕ К 2030 ГОДУ»**

7-MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr.
2025-yil, 15-oktyabr.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ixamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASSESSING RISKS IN BANKING ACTIVITIES TO ENHANCE THE EFFICIENCY OF FINANCIAL SERVICES	21
Saidov Jasurbek Latipbayevich	
MECHANISMS OF THE IMPACT OF STATE BUDGET REVENUES AND EXPENDITURES ON ECONOMIC GROWTH.....	24
Sheraliyev Nurbek Jumanazarovich	
O'QUVCHI VA TALABALARDA HUQUQIY MADANIYATINI TA'LIM JARAYONIDA YUKSALTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA TAMOIYILLARI	27
Mansurova Zilola Akromxonovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA FINTECH INNOVATSIYALARINING RIVOJI VA ULARNING SANOAT-QURILISH SEKTORIDAGI TRANSFORMATSION TA'SIRI	30
Muzayyana Beknazarova	
TURIZM SOHASIDA RAQOBAT AFZALLIKLARINI YARATISHDA MARKETINGNING ROLI	33
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI IJROSINI RAQAMLASHTIRISHNING FISKAL INTIZOM VA SHAFFOFLIKKA TA'SIRI	37
Tangrieva Farida Abdulkarimovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA SUN'IY INTELLEKTNI TATBIQ ETISH ORQALI BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	41
Radjabov Bunyod Abdullilovich	
XXI-ASRDA JAHON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ASOSIY DRAYVERLARI	45
Jalolov Umidjon Xudoyberdi o'g'li, Yegamberdiyev Shuxrat Satimbayevich	
XALQARO RAQAMLI INTEGRATSIYA JARAYONIDA O'ZBEKISTON ISHTIROKI	48
Muyassarzoda Fayziyeva	
ФИНАНСОВЫЙ КОНТРОЛЬ КАК КЛЮЧЕВОЙ ИНСТРУМЕНТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ И ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	52
Турсунбоева Нилуфар Отабековна	
ФИНАНСОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ И ИНВЕСТИЦИИ	55
Ягудин Дмитрий Рустамович	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA BARQAROR TURIZM RIVOJI: GLOBAL TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	57
Xamdullayeva Gulhoyo Ergash qizi	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA INVESTITSION QARORLARNI OPTIMALLASHTIRISH	59
Rustambekov Djasur Askarovich	
KORXONA POTENSIALINING MOHIYATI VA TUZILMASIGA OID NAZARIY HAMDA ILMIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	61
Djalilov Sardor Sadillovovich	
XALQARO IQTISODIYOTNING GLOBAL DAROMAD TENGSIZLIKLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI: SAVDO SIYOSATLARI VA REDISTRIBYUTSIYA MEKANIZMLARINING TAQQOSLAYDIGAN TAHLILI	64
Kurolov Maksud Obidovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA INVESTITSIYA VA YHM O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	73
Zaripova Muqaddas Jumaniyozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRISHNING MEHNAT BOZORI DINAMIKASIGA TA'SIRI	77
Akmalbek Najimov Umid o'g'li, Dinara Ishmanova	
ПРАКТИКА И АНАЛИЗ КРЕДИТОВАНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЕЙ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ	81
Шамшетьева Гульраушан	



AHOLI DAROMADLARI O'SISHI VA INFLYATSIYA DARAJASI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	83
G'ayratova Zilola G'anijon qizi, Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
KORXONALARDA MAHSULOT SAVDOSIGA OID MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISHNING ZAMONAVIY INTELEKTUAL YONDASHUVLARI	86
Baydullayeva Dildora Tuylibayevna, Baydullayev Ruslan Tuylibayevich	
ELEKTRON TIJORATNING MILLIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	90
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
RAQOBATBARDOSH ELEKTROTEXNIKA MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHDA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYA VA INVESTITSIYA SIYOSATINING O'RNI	93
Jalolov Abbosxon Ravshanxon	



RAQOBATBARDOSH ELEKTROTEXNIKA MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISHDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA VA INVESTITSIYA SIYOSATINING O'RNI

Jalolov Abbosxon Ravshanxon

Fan va texnologiyalar universiteti
"Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti v.b.

Annotatsiya. Tezisdá O'zbekiston elektrotexnika sanoatida texnologik modernizatsiya va investitsiya siyosatining raqobatbardoshlikni oshirishdagi roli yoritilgan. Modernizatsiya, raqamlashtirish va xorijiy investitsiyalar sanoat tarmog'ining barqaror rivojlanishini ta'minlayotgani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: texnologik modernizatsiya, investitsiya siyosati, elektrotexnika sanoati, raqobatbardoshlik.

Abstract. The thesis examines the role of technological modernization and investment policy in strengthening the competitiveness of Uzbekistan's electrical industry. It emphasizes the impact of digitalization and foreign investments on sustainable sectoral growth.

Keywords: technological modernization, investment policy, electrical industry, competitiveness.

Аннотация. В тезисе раскрыта роль технологической модернизации и инвестиционной политики в повышении конкурентоспособности электро-технической промышленности Узбекистана. Отмечается влияние цифровизации и иностранных инвестиций на устойчивое развитие отрасли.

Ключевые слова: технологическая модернизация, инвестиционная политика, электро-техническая промышленность, конкурентоспособность.

KIRISH

Elektrotexnika sanoati zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, texnologik yangilanish va innovatsion ishlab chiqarish jarayonlarini o'zida mujassam etadi. Ushbu tarmoqda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish nafaqat ichki bozor talabini qondirish, balki xalqaro bozorlarda mustahkam o'rin egallash imkonini beradi. Shu bois, texnologik modernizatsiya va investitsiya siyosatining takomillashtirilishi raqobat ustunligini ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy elektrotexnika sanoatining muvaffaqiyati texnologik yangilanish, innovatsiyalarni joriy etish va samarali investitsiya siyosatini olib borish bilan chambarchas bog'liq. Bugungi globallashtirish sharoitida texnologik modernizatsiya ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamlashtirish va energiya tejamliligini oshirish orqali korxonalar raqobatbardoshligini mustahkamlovchi hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Innovatsion texnologiyalar mahsulot sifati va ishlab chiqarish unumdorligini oshiradi, tannarxni kamaytiradi hamda bozor talablariga tez va mos ravishda javob berish imkonini yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ilg'or texnologiyalarni joriy etish mahsulot sifatini 30 foizgacha yaxshilaydi, ishlab chiqarish xarajatlarini esa 15–20 foizgacha kamaytiradi. Bu esa korxonalarga nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro maydonda ham barqaror pozitsiyani egallash imkonini beradi.



1-rasm. Elektrotexnika sanoatida modernizatsiya jarayonlari quyidagilarga xizmat qiladi¹.

Elektrotexnika sanoatida texnologik modernizatsiya jarayonlari bir necha yo'nalishda amalga oshirilmoqda. Avvalo, ishlab chiqarish siklini qisqartirish va resurslardan samarali foydalanish orqali ishlab chiqarish samaradorligi oshirilmoqda. Shu bilan birga, yuqori texnologiyali va eksportga yo'naltirilgan mahsulot turlarini ishlab chiqish raqobat ustunligini yaratmoqda. "Yashil texnologiyalar" asosida energiya tejamkor uskunalarni joriy etish ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish esa dizayn, sinov va sifat nazorati jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi. Natijada korxonaning ishonchligi, samaradorligi va xalqaro standartlarga mosligi ortadi.

Texnologik modernizatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish esa, avvalo, samarali moliyalashtirishga, ya'ni oqilona investitsiya siyosatiga bog'liq. Investitsiyalar oqimini jalb etish, xorijiy hamkorlikni kengaytirish, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarini rivojlantirish, soliq imtiyozlarini joriy etish kabi mexanizmlar korxonalarning texnologik salohiyatini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

Xususan, ishlab chiqarishning avtomatlashtirilgan liniyalarini joriy etish uchun texnologik kreditlar va grantlar ajratish, innovatsion klasterlar hamda texnoparklar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, mahalliy komponentlar ulushini oshirish orqali importga qaramlikni kamaytirish kabi choralar texnologik taraqqiyotning barqaror manbai hisoblanadi. Shuningdek, Janubiy Koreya, Germaniya va Yaponiya tajribalarini o'rganib, ularni milliy sharoitga moslashtirish ham muhim ahamiyatga ega.

Bu siyosat nafaqat ishlab chiqarish infratuzilmasini yangilaydi, balki qo'shilgan qiymat zanjirini kengaytirish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Elektrotexnika tarmog'ida raqobatbardoshlikni oshirish kompleks yondashuvni talab etadi, chunki bu jarayon bir vaqtning o'zida texnologiya, boshqaruv, moliya, inson kapitali va eksport strategiyasini qamrab oladi.

Birinchidan, texnologik yangilanish mexanizmi ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamlashtirish va robotlashtirish orqali modernizatsiyani chuqurlashtiradi. Ikkinchidan, innovatsion boshqaruv mexanizmi ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga tez joriy etish, yangi mahsulot turlarini ishlab chiqish va ularni tijoratlashtirish imkonini yaratadi. Uchinchidan, investitsion rag'batlantirish mexanizmi davlat subsidiyalari, soliq imtiyozlari hamda DXSh orqali modernizatsiya jarayonini moliyaviy qo'llab-quvvatlaydi. To'rtinchidan, kadrlar salohiyatini oshirish mexanizmi texnik mutaxassislarning malakasini oshirish va xalqaro sertifikatlash tizimlarini joriy etish orqali inson kapitalini rivojlantiradi. Nihoyat, eksportni diversifikatsiya qilish mexanizmi yuqori qo'shimcha qiymatli elektrotexnika mahsulotlarini tashqi bozorga yo'naltirishni rag'batlantiradi, bu esa iqtisodiy o'sishning barqaror manbaiga aylanadi.

Porterning qiymat zanjiri va besh kuch modeli asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, elektrotexnika sanoatida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish texnologik modernizatsiya va investitsiya siyosatining uyg'unlashgan holda amalga oshirilishiga bevosita bog'liqdir. Ishlab chiqarish jarayonlarida qo'shilgan qiymatni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va innovatsiyalarni joriy etish orqali korxonalar ichki bozorda ham, xalqaro raqobatda ham o'z ustunligini saqlab qoladi.

1 Muallif ishlanmasi.



O'zbekiston elektrotexnika sanoati so'nggi yillarda iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biriga aylandi. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan strategik dasturlar, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan islohotlar ushbu tarmoqning raqobatbardoshligini tubdan oshirmoqda.

Texnologik modernizatsiya jarayonlari nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirmoqda, balki elektrotexnika mahsulotlarining xalqaro bozorlarda sifat va ishonchlilik jihatidan raqobatdosh bo'lishiga xizmat qilmoqda. Avvalo, elektrotexnika sohasini rivojlantirishga oid islohotlarning huquqiy asosi yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Elektrotexnika sanoatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (2020-yil 23-iyun, PQ-4757-son), shuningdek, "2022–2026-yillarda sanoatni rivojlantirish strategiyasi" va "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida elektrotexnika tarmog'ining modernizatsiyasi, raqamlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari va energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish ustuvor yo'nalish etib belgilangan.

Bu hujjatlar tarmoqda texnologik modernizatsiyani jadallashtirish, qo'shilgan qiymatni oshirish va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Bugungi kunda O'zbekiston elektrotexnika sanoati "O'zeltexsanoat" uyushmasi atrofida tizimli tarzda rivojlanmoqda. Mazkur uyushmaga birlashgan 80 dan ortiq korxona kabel-issiqlik texnikasi, maishiy elektr jihozlari, transformator, avtoelektronika, maishiy texnika va sanoat avtomatikasi mahsulotlarini ishlab chiqarmoqda.

2024-yilda tarmoqda ishlab chiqarish hajmi 14 trillion so'mdan ortiqni, eksport hajmi esa 450 million AQSh dollariga yaqinlashdi. Shu bilan birga, korxonalarning 40 foizdan ortig'i o'z ishlab chiqarish liniyalarini modernizatsiya qildi va raqamli boshqaruv tizimlariga o'tdi.

Texnologik modernizatsiya jarayonlarida avtomatlashtirilgan yig'ish liniyalari, raqamli nazorat tizimlari, "aqlli" energiya o'lchovchi asboblari, robotlashtirilgan ishlab chiqarish bloklari joriy etilmoqda. Masalan, "Artel", "Texnopark", "Foton", "Toshkent transformator zavodi", "Uzelektroapparat-Elektrotexnika" kabi yirik ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarishni raqamlashtirish, SAP va ERP tizimlarini joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarida resurslardan foydalanish samaradorligini 15–25 foizgacha oshirishga erishdi.

"Texnopark" MCHJ misolida, ilg'or Yevropa texnologiyalari asosida ishlaydigan konditsionerlar, kir yuvish mashinalari va muzlatkichlar ishlab chiqarilmoqda, bu esa nafaqat ichki ehtiyojni, balki MDH va Yaqin Sharq bozorlarini ham qamrab olish imkonini bermoqda.

Shuningdek, texnologik modernizatsiyani moliyalashtirish maqsadida Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, "Asaka bank", "Aloqabank" hamda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi orqali korxonalarga texnologik kreditlar, imtiyozli investitsion resurslar va eksport sug'urtasi mexanizmlari yo'lga qo'yildi.

Davlat-xususiy sheriklik asosida "Yangi Angren", "Jizzax", "Urgut", "Namangan" kabi erkin iqtisodiy zonalarda elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yangi klasterlar tashkil etildi.

Bunda xorijiy sarmoyadorlar, xususan Janubiy Koreya, Xitoy, Turkiya va Germaniya kompaniyalari bilan hamkorlikda yuqori texnologiyali loyiha va qo'shma korxonalar barpo etilmoqda. Masalan, "Samsung-Uzbekistan" qo'shma loyihasi doirasida 2023–2024-yillarda Andijon viloyatida elektron maishiy texnika ishlab chiqarish liniyasi yo'lga qo'yildi, "SK Nexilis" kompaniyasi esa Navoiy erkin iqtisodiy zonasida mis folga ishlab chiqarish zavodini ishga tushirdi.

Ushbu korxonalar ishlab chiqarishning raqamli nazorati, energiya samaradorligi va ekologik tozalik standartlariga to'liq mos ravishda ishlamoqda. Bu nafaqat ichki bozorni zamonaviy mahsulotlar bilan ta'minlash, balki eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va milliy texnologik mustaqillikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Kadrlar salohiyatini oshirish ham modernizatsiya jarayonlarining muhim yo'nalishidir. O'zbekiston elektrotexnika tarmog'ida so'nggi yillarda texnik universitetlar, IT Park va elektronika texnikumlari bilan hamkorlikda ishlab chiqarish amaliyotiga yo'naltirilgan o'quv dasturlari joriy qilinmoqda. Yosh muhandislar uchun Germaniya, Koreya va Xitoydagi ilg'or tajribalar asosida malaka oshirish kurslari yo'lga qo'yilgan. Bu inson kapitalini mustahkamlab, texnologik islohotlarning barqaror davom etishini ta'minlamoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda olib borilayotgan texnologik modernizatsiya va investitsion islohotlar elektrotexnika sanoatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish nafaqat texnik yangilanish, balki boshqaruv tizimlari, kadrlar salohiyati, moliyaviy mexanizmlar va xalqaro integratsiya omillarining uyg'unligiga asoslanadi. Shu bois, texnologik modernizatsiya va investitsiya siyosatini yanada chuqurlashtirish O'zbekiston elektrotexnika sanoatining uzoq muddatli raqobat ustunligini ta'minlaydigan eng muhim strategik yo'nalish bo'lib qoladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. — PF–158-son, 2023-yil 11-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Elektrotexnika sanoatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. — PQ–4757-son, 2020-yil 23-iyun.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarda sanoatni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi qarori. — PQ–27-son, 2022-yil 26-yanvar.
4. "O'zeltexsanoat" uyushmasi faoliyati bo'yicha rasmiy ma'lumotlar. — www.uzeltech.uz (murojaat sanasi: 2025-yil 30-oktabr).
5. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlari. — www.miit.uz (murojaat sanasi: 2025-yil 30-oktabr).
6. Porter, M. E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. — New York: Free Press, 1985.
7. OECD. Technology and Innovation Outlook 2024. — Paris: OECD Publishing, 2024.
8. UNIDO. Industrial Development Report 2023: The Future of Industrialization in a Post-Pandemic World. — Vienna: United Nations Industrial Development Organization, 2023.
9. World Bank. Uzbekistan Country Economic Memorandum: Structural Transformation for Inclusive Growth. — Washington D.C., 2024.
10. Abdurahmanov, Q., & Ergashev, B. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish yo'nalishlari. — "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" jurnali, №4, 2023.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100